

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi

BAYONNOMASI № 7

17.10.25 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Prof. Shamansurova E.A., prof. Agzamova Sh.A., dots.: Turdiyeva Sh.T., Ganiyeva D.K., Devorova M.B., Maxkamova G.T., Ulugov A.I., Fayziyev O.N., Butayev CH.J., Toxtayeva D.M., ass., t.f.n. Nosirova G.R., Ergasheva N.R., Abdurazakova Sh.A., ass. Karimova D.I., Koshimbetova G.K., Shayxova M.I., Jumaniyozov N.B., Tillaboyeva A.A., Toirova N.N. va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari



Kun tartibi: ZOOM orqali “**Boqiy shaharlarimiz**” mavzusida Kelagak soati o'tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi poydevoriga tamal toshi qo'ygan paytda: **“Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”**, deb alohida ta'kidlagan edi. Shuning uchun ham turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan 20 ta davlat ro'yxatida O'zbekiston 4-o'rinda qayd etildi (UNWTO, 2020 yil). Qadimiy shaharlarning tarixiy yodgorliklarini restavratsiya qilish ishlari YUNESKO bilan hamkorlikda amalga oshirmoqda. Shu maqsadda Prezident Farmoni (26.05.2020 -6000-son) asosida YUNESKO shafeligida Xalqaro maslahat qo'mitasi tashkil etildi. So'nggi 5 yilda ushbu maqsadlarga katta mablag'lar ajratildi. Misol uchun, 2020-yilda tarixiy obidalarni ta'mirlashga 22,8 mlrd. so'm ajratilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 3,2 barobarga o'sdi. “Buxoro”, “Samarqand”, “Ichan qal'a”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo'qon” davlat muzey-qo'riqxonalari chegaralari aniq belgilandi va muhofazaga olindi.



Samarqand shahrida an'anaviy "Sharq taronalari" xalqaro festivali, Shahrisabzda "Xalqaro maqom san'ati" festivali, Buxoro shahridagi "Ipak va ziravorlar" festivali, Marg'ilon shahridagi "Atlas bayrami" forumlarida dunyoning ko'plab davlatlaridan madaniyat va san'at namoyandalari ishtirok etmoqda. O'zbekiston juda katta turizm salohiyatiga ega. Yurtimizda jami 7 ming 400 ta madaniy meros ob'ektlari mavjud. Ulardan 209 tasi 4 ta muzey shaharlar – Xiva shahridagi Ichan qal'a, Buxoro, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi va Samarqand shahrida joylashgan. 2019-2025-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi asosida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. "Boqiy shaharlar" – bu faqatgina tarixiy yodgorliklar emas, balki, xalqimiz tafakkuri, mehnati va ijodkorligining yorqin timsolidir. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar asrlar davomida ilm-fan, san'at, davlatchilik va ma'rifatning markazi bo'lib kelgan. Ular nafaqat o'z davrida, balki, butun insoniyat taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan. Har bir go'shasi, har bir toshi millatning o'zligini, dunyoga qo'shgan hissasini ifodalaydi. Shu ma'noda bu shaharlar bizning o'tmishimiz bilan kelajagimizni bog'lab turuvchi ma'naviy ko'prikdir.

Kafedra mudiri, t.f.d. prof.

Shamansurova E.A.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari

bo'yicha mas'ul, ass.:

Shayxova M.I.